

AXLOQIY TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ VA G'ARB ALLOMALARINING ILMIY QARASHLARI

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrası o'qituvchisi

G.Roziqova, Murodova Muxlisa

Annotatsiya: Ushbu maqolada, axloqiy tarbiya masalasi Sharq va G'arb falsafalarida qanday yoritilganligi tahlil qilinadi. Maqolada, Sharq madaniyatida islom, hind va xitoy falsafalarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari, shuningdek, G'arb falsafasida Platon, Aristotel, Kant va Mill kabi allomalarining axloqiy tarbiya haqida ilgari surgan g'oyalari o'rganiladi. Sharq falsafasi ko'proq ruhiy va ma'naviy jihatlarni rivojlantirishga, G'arb esa erkinlik, individualizm va rasionalizm asosida axloqiy tarbiyaga urg'u beradi. Har ikki madaniyatdagi axloqiy yondashuvlar bir-birini to'ldiruvchi va insonning axloqiy shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan muhim omillar sifatida qaraladi.

Kalit so'zlari: Axloqiy tarbiya, Shaxsiy mas'uliyat, Sabr va adolat, tarbiyaviy qadriyatlar.

Axloqiy tarbiya — insonning ijtimoiy va ma'naviy jihatdan yetuk, adolatli, mas'uliyatli va hamdard bo'lib shakllanishini ta'minlaydigan muhim jarayon. Bu jarayon, nafaqat shaxsning ichki dunyosini, balki jamiyatning axloqiy va ma'naviy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Har bir madaniyat va falsafa axloqiy tarbiya masalasiga o'z yondashuvini taklif etadi. Sharq va G'arb allomalarining axloqiy tarbiya haqidagi qarashlari ham juda xilma-xildir, biroq ularning har biri insonning axloqiy sifatlarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Pedagog — olimlarning Sharq mutafakkirlari ijodida ta'lim-tarbiya, shaxs ma'naviy kamoloti masalalariga bag' ishlangan ilmiy tadqiqotlarning pedagogika fani rivojida muhim o'rni bor. Lekin ular allomalar merosida olg'a surilgan ta'lim-tarbiya masalalarini yoritishda milliylik tamoyilidan kelib chiqqan holda yondashmadilar. Aslida

Markaziy Osiyo allomalarining ta'lim-tarbiyaga oid qarashlarida ma'naviy qadriyatlarga bo'lgan e'tibor asosiy o'rinda turadiki, bu bevosita inson kamolotini shakllantirishga omil bo'la oladigan hodisadir.

Sharq mutafakkirlari o'z asarlarida ta'lim usullari, qoidalari, tamoyillari, metodlari va shakllari asosida ta'lim amaliyotining mohiyatini ifoda etadilar. Biroq ta'lim masalalari bilan ular maxsus va izchil shuqullanmaganliklari bois maxsus didaktik nazariya yaratilmadi. Ta'limni ular fan sifatida emas, boshqa fanlarga o'rgatish san'ati, hunarmandchilik sifatida tushundilar. Lekin shunga qaramay sharq allomalari tomonidan ilgari surilgan qoida, usul va tamoyillarning aksariyati zamonaviy maktablarda ham qo'llanilmoqda. Sharq allomalari Muhammad al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al-Kindiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Musliqiddin Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiylar ham ta'limning ilmiyligi, ongliligi, ko'rgazmaliligi, tushunariligi, ketma-ketligi, muntazamligi, moslashuvchanligi va mustaqilligi, shuningdek, bolaning individual xususiyatlari, layoqati va qobiliyatlarini hisobga olish, ta'limni insonparvarlashtirish kabi qoida va tamoyillarini ifoda etib berganlar. Komil insonni shakllanirish masalasi barcha davrda ham muhim ijtimoiy vazifa sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Xususan, zardushtiylik dinida komillikning asosi ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal (harakat) dan iborat ekanligi ta'kidlansa, islom ta'limoti g'oyalariga ko'ra yetuklikning bosh mezoni - ilmlilik, bilimli bo'lishdir. Abu Rayhon Beruniy esa insonning tashqi qiyofasi, uning axloqiy qiyofasi bilan uzviy bog'liqligini, kishidagi olijanoblik va orastalik insonlar bilan muomalasida muhim o'zak ekanligini asoslaydi. Yusuf Xos Hojib insonlar bilan do'st bo'lish uchun asosiy kalit "bu tildir, til tufayli kishi o'z ilmi, aqliga jilo beradi. So'zni o'ylab so'zlash, uning ulug' bo'lishiga olib keladi, yoki o'ylanmay so'zlansa, uning qadrini tushuradi" kabi fikrlari orqali insoniy munosabatlarda muomalaga yuqori etibor berish kerakligini uqtiradi. Xoji Axmad Yassaviy hikmatlarida esa har bir insonning orzusi insonlar bilan yaxshi munosabatda

bo'lish, do'st ortirish, sevlash va sevilish ekanligi ko'rsatib berilgan. Abu Nasr Farobiy "Fozil odamlar shahri" asarida axloq odobga loyiq inson ikki fazilatiga ega bo'lmog'i lozimligi va bu fazilatlar tarkibida muomila odobi, insonlarning o'zaro bir-biri bilan xush muloqotligi, do'stligi kabilarni kiritadi. Mutafakkirning fikricha, insonga uni go'zal amallar qilishi uchun yo'naltiriladigan odat mahsuli bo'lishiga yetuk xulq lozim. Xulqning yaxshiligi xatti-harakatlarda me'yor qay darajada saqlanganligi bilan belgilanadi. G'arb falsafasida axloqiy tarbiya ko'proq rasionalizm va individualizmga asoslangan. G'arbdagi axloqiy qarashlar ko'pincha inson huquqlari, erkinlik, adolat, tenglik va ma'naviy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan. G'arb falsafasida axloqiy tarbiya masalasi, ayniqsa, Platon va Aristotel kabi allomalar tomonidan ishlab chiqilgan. Platonning "Respublika" asarida, u axloqiy tarbiya jarayonini davlat va jamiyatga bo'lgan yuksak mas'uliyatni anglash orqali shakllantirishni ta'kidladi. Platonning fikricha, odamlar faqat axloqiy yuksalish orqali haqiqiy baxtga erishishlari mumkin. Aristotel esa axloqiy fazilatlarni kognitiv va amaliy jihatdan rivojlantirishga urg'u berdi. Uning "Nikomax axloqi" asarida, axloqiy fazilatlar o'rganilishi va tajriba orqali shakllanishi kerakligi haqida gap boradi. Aristotelning axloqiy tarbiyada asosiy g'oyasi – odamning o'z fazilatlarini rivojlantirish va muvozanatli hayot kechirishdir. Har bir xalqning ta'lim-tarbiyaga oid an'analari borki, ular pedagogik tafakkur taraqqiyotining asosi bo'lib xizmat qiladi va bola tarbiyasi haqidagi tasavvurlar va qarashlarni ifodalaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.Zunnunov, A.U.Mahkamov. «Didaktika». T. «Sharq» 2006 yil.
2. A.Avloniy. «Turkiy guliston yoxud axloq», «O'qituvchi» nashriyoti, T.:1993.
3. Abu Nasr Forobiy. «Fozil odamlar shahri» «A.Qodiriy» nashriyoti, T.:1993

4. A.Haydarov. Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar.T.: Muharrir, 2008 y.
3. M.Xajiyeva. Xoja Ahmad 5.Yassaviyning ma'naviy-tarbiyaviy qarashlari. Avtoreferat. T.: 2004 y.